



## MODDIY TEXNIKA TAMINOTI BOYICHA BIZNES REJANING BAJARILISHINI TAHLIL QILISH

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston Davlat Universiteti  
o'qituvchisi*

**Sharobboyev Asilbek**

*Guliston Davlat Universiteti  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada moddiy texnika ta'minoti bo'yicha biznes rejaning bajarilishini tahlil qilish jarayoni ko'rib chiqiladi. Tahlilning asosiy maqsadi, korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdir. Maqolada, moddiy resurslarning korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, korxonaning moddiy texnika ta'minoti rejasining bajarilish darajasi va uning korxonaga faoliyatiga iqtisodiy ta'siri baholanadi. Tahlil natijalariga asoslanib, korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va moddiy texnika ta'minotini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** texnika ta'minoti, ichki ta'minot, tashqi ta'minot, ta'minlash koeffitsienti, resurslardan samarali foydalanish.

**Kirish (introduction):** Moddiy texnika ta'minoti, korxonaning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir. Ushbu ta'minot biznes rejalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi. Korxonalar o'z maqsadining muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida o'zlarini ishlab chiqarishlar moddiy texnika resurslari bilan ta'minlash jarayonini bajarilishiga alohida e'tibor beradilar. Buning uchun aniqlangan, ya'ni korxonaga uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarini yangi turlari mavjudligi hamda ular jahon bozorida taklif qilinganligi o'rganiladi. Korxonalar o'zi uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarining yaxshilarini, ya'ni samaralisini olishga harakat qilishadi. Moddiy resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sotish hajmini oshirish uchun korxonaga xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslar bilan yetarli miqdorda ta'minlanishi kerak. Materiallarni belgilangan miqdorda, assortimentda kelib tushmasligi, muddatlarini uzayishi ishlab chiqarishni to'liq quvvat bilan ishlashini ta'min etmaydi. Shu bilan birga ortiqcha xomashyo zaxiralariga ega bo'lish, mablag'lar aylanishini sekinlashtiradi, naqd pul mablag'larini yetishmasligiga olib keladi. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalaridan biri, ishlab chiqarishni normal tashkil etish uchun korxonani optimal miqdordagi moddiy-texnika resurslariga bo'lgan talabini aniqlashdan iboratdir.

Moddiy texnika resurslariga bo'lgan ehtiyoj ikki manba orqali qondiriladi.

1. Tashqi ta'minot.
2. Ichki ta'minot.



**Tashqi ta'minot** - xomashyo birjalari, ko'rgazmalari orqali tuzilgan shartnomalar asosida xomashyo, yoqilg'i va boshqa resurslarni kelib tushishi tushuniladi.

**Ichki ta'minot** - ta'minot rejasining bajarilishi ichki resurslardan unumli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejimiga rioya qilish evaziga amalga oshiriladi.

Tahlil davomida korxonani moddiy resurslar bilan **ta'minlanish koeffitsiyenti** aniqlanadi:

$$K(t) = \frac{M(x)}{M(r)}$$

Bunda,  $M_x, M_r$  - materiallarni haqiqiy tushumi va materiallarga bo'lgan talab (shartnoma).

Moddiy resurlarning me'yor zaxirasi joriy va muhofaza (har ehtimolga qarshi) zaxiralaridan iborat.

$$Z_{me'yor} = Z_{joriy} + Z_{muhofaza}$$

Joriy zaxira yetkazib berish intervali (Int) kunda va materiallarni bir kunlik sarflari (Skun) ko'paymasidan hosil bo'ladi.

$$Z_{joriy} = Int * Skun$$

### Moddiy resurslar ta'minoti rejasi bajarilishi tahlili

Material-lar turi	Material-larga bo'lgan talab, tn	Talabni qoplash manbayi		Shartnoma tuzildi, tonna	Talabni shartnoma bo'yicha qoplanishi, %	Material-larni kelib tushishi, tonna	Shartnoma bajari-lishi, %
		ichki	tashqi				
A	25000	500	24500	23300	95,1	21902	94,0
B	47000	50	4650	4420	95,0	4190	94,8

Muhofaza zaxiralari ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishini kafolatlovchi, moddiy resurlar ta'minotidagi uzilishlar ro'y bergan hollar uchun zarurdir.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, «A» xomashyo turiga tuzilgan tashqi shartnoma 95,1 (23300:24500x100) foizga, «B» turi bo'yicha 95,0 foizga bajarilgan xolos. Korxonani ichki va tashqi manbalar bo'yicha xomashyoga bo'lgan talabi «A» xomashyosi bo'yicha 95,2 ((500+23300)/2500)foizga, «B» xomashyosi bo'yicha esa 95,1((50+4420)/4700) foizga ta'minlangan. Materiallarni yetkazib berish rejasi 10,4

foizga bajarilmagan.  $(\frac{(21902 + 500) * 100}{25000}) = 89,6$  foiz;  $100 - 89,6 = 10,4$

Moddiy texnika taminoti bo'yicha biznes rejaning bajarilishini tahlili

Rejani bajarish jarayonida quyidagi asosiy jihatlar diqqat markazida bo'ladi:



Rejada Ko'zda Tutilgan Vazifalar: Rejada belgilangan vazifalarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlari ko'rib chiqiladi. Har bir vazifaning bajarilish darajasi va sifati baholanadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, moddiy texnika ta'minoti bo'yicha biznes rejaning bajarilishini chuqur tahlil qilish natijasida, korxonaning ushbu sohadagi joriy holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari aniqlandi. Tahlil jarayonida, moddiy resurslarning yetarli darajada ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanishning korxonaning umumiy ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'siri kuzatildi. Agar korxonalarda moddiy texnika ta'minoti resurslarini boshqarish tizimi takomillasha, ishlab chiqarishdagi samaradorlik ancha o'sishi mumkin.





***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik. . Ziyo nashr. 2024.-169 b
3. Muxametov, A., Matrasulov, B., Chorshanbiyev, U., & Abduvoxidov, A. (2024). QAYTA IJARAGA OLISH UCHUN ASOSIY VOSITALARNI SOTISH HISOBI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 182-191.
4. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
5. Gulizaxro, T., Mavlyuda, I., Shaxnoza, A., & Hilola, S. (2023, April). Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 102-104).
6. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B1), 29-34.
7. Ganievna, N. A. (2015). 20. Asır Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri.
8. Atakhodjaeva, G. A., Rakhimov, S. M., & Azimova, N. Z. (2017). Variабельность ритма сердца у больных с хронической сердечной недостаточностью и метаболическим синдромом. *Likars' ka sprava*, (3-4), 31-37.
9. Отажонова, М. (2016). ИЖОДКОР БАДИЙ ТАФАККУРИДА ВОҚЕЛИКНИНГ МИФОЛОГИЗАЦИЯЛАНИШИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 127-129.
- 10.Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
- 11.Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. *ANGLISTICUM*. *Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 11(5), 16-27.